

ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA MIFOLOGIK ALLYUZIYA

Istamova Shamsiyabonu Ilhom qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti Jurnalistika
va o'zbek filologiyasi fakulteti 4-bosqich talabasi
ilhomovnashams2@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada mifologik allyuziya va uning xususiyatlari, Abdulla Oripov she'riyatida uchraydigan mifologik allyuziv birliklar va ularning tahlili xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: allyuziya, allyuziv nom, mifopoetonimlar, mifologik allyuziya

Аннотация: В статье рассматриваются мифологическая аллюзия и её особенности, мифологические аллюзивные единицы, встречающиеся в поэзии Абдуллы Орипова, а также их анализ.

Ключевые слова: аллюзия, аллюзивное имя, мифопоэтонимы, мифологическая аллюзия.

Annotation: The article discusses mythological allusion and its characteristics, mythological allusive units found in the poetry of Abdulla Oripov, and their analysis.

Keywords: allusion, allusive name, mythopoetonyms, mythological allusion.

Hozirgi kun matnshunosligida badiiy matnni boshqa bir matnlar bilan bog'lab o'rganish, ular orasidagi uzviy aloqani aniqlash, matnlarni bog'lashga xizmat qiluvchi birliklarni tahlil qilishga e'tibor kuchaydi. Allyuziya intertekstual aloqa sifatida, matnlararo bog'lovchi halqa bo'lib xizmat qiladi. Adabiy matnlarda ko'p qatlamli ma'no hosil qilish, badiiy ifodani boyitish va matnlararo bog'liqlikni kuchaytirish vositalaridan biri sifatida allyuziya muhim ahamiyat kasb etadi. "Allyuziyalar mifologik, diniy, tarixiy va adabiy kontekstdagi obrazlar hamda voqealarning xususiyatlarini matnda tilga olingan boshqa obyektlarga ko'chirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. U nafaqat avvaldan tanish timsollarni tiklaydi, balki ular orqali yangi ma'no yukini ham o'quvchiga yetkazadi"[Galperin I.R., 1981, 58].

Adabiy matnda muallif tomonidan qo'llaniladigan turli poetik vositalar orasida allyuziya alohida ahamiyatga ega bo'lib, u muayyan madaniy, tarixiy yoki mifologik kontekstga ishora tarzida paydo bo'ladi. Shu jumladan, mifologik allyuziya – qadimgi miflar, afsonalar va timsollar asosida shakllangan bilvosita murojaat shaklidir. Ular ko'pincha xalq og'zaki ijodi, diniy e'tiqodlar yoki qadimiy madaniyatlar bilan bog'liq

bo'lgan obrazlar, voqealar va tushunchalarni eslatish orqali matnga chuqur semantik qatlam kiritadi.

Mifopoetonimlar ham allyuziv nom vazifasida kelishi mumkin. Mifonimlar xayolga, tasavvurga asoslangan nomlar bo'lib, nomning motivida mifik tasavvur yotadi. Bunday nom toponim ham, antroponim ham, zoonim ham, oronim ham bo'lishi mumkin[Avlakulov Y, 2012, 36]. Mifopoetonimlarning badiiy matnga olib kirilishi allyuziya usuli bo'lib, u badiiy ijodda keng tarqalgan hodisalardan biridir. Bunda mifopoetonim intertekstual matn unsuri vazifasida qo'llanib, allyuziv nom sifatida lingvopoetik qimmat kasb etadi. Mifopoetonimlar allyuziv nom sifatida badiiy matnda katta hajmli xabar-tushunchani ixcham shaklda ifodalash imkoniyatini bera oladi. Masalan, badiiy matnda qo'llangan *Haydar* nomi shamol, *Azroil* nomi o'lim hodisalari bilan bog'liq allyuziv nomlardir[Ubaydullayeva O, 2023, 36].

Ikardir Promotey nomini olib,

O't izlab xudolar qoshiga borgan.[A.Oripov. Saylanma]

Promotey – yunon mifologiyasida Olimp tog'idagi ma'budlardan olovni o'g'irlab, odamlarga hadya qilgan ma'bud. Buning uchun u Zevs buyrug'I bilan tog' qoyasiga kishanlanib, muttasil qiynoqqa solingan. Bu parchada shu mifologiya nazarda tutilgan.

Bir yelkangda Demon-u yovuz daho,

Bir yelkangda shoyon insoni hazrat.[A.Oripov. Saylanma]

Demon (yunoncha: daimon-ruh, xudo) – yovuz, “nopok” kuchlarni gavdalandiruvchi xayoliy mavjudot – shayton, iblis, jin, alvasti va hokazo iudaizm va xristianlik rivoyatlarida Demon gunohga botgan, xudoga itoat qilishdan bosh tortgan farishtalar deb hisoblangan. Ba'zan Olimp xudolari ham Demon deb atalgan. Shu tarzda yunon mifologiyasida Demon ko'p hollarda inson taqdirini hal qilgan qandaydir mavhum ilohiy kuch sifatida tasavvur qilingan.

Xazar kosa bo'lsin, ya'ni jomi Jam,

Sipqargil, sharafla davru davronni.[A.Oripov. Saylanma]

Jomi Jam – Jamshid jomi. Mutasavviflar g'ayb asroridan voqif qalbni “jomi jam”ga o'xshatishgan. Irfoniy adabiyotdagi “jom sharobi” ilohiy sirlarni oshkor qilishi bilan “jomi jahonnamo”ga qiyos qilingan.

Bahodirlik ichra yor sizga Humoy,

Siz ulug' zotlarning izin bosgan er.[A.Oripov. Saylanma]

Humoy – humo, afsonaviy qush bo'lib, uning soyasi tushgan odam baxtli va davlatli bo'ladi deyilgan rivoyat bor yoki Jannat qushi, baxt va davlat keltiruvchi qush. Turkiy xalqlar mifologiyasida bir qancha afsonaviy ayol obrazlari mavjud bo'lib, hayot daraxti bevosita ma'buda Umay Ona bilan bog'lanadi. Umayning yana bir avatari Humoy qushi hisoblanadi. Ushbu afsonaviy qush baxt, to'kislik va tangrining xabarchisi sifatida turkiy

mifologiyada uchraydi. Yana bir o'rinda uning baxt, omad belgisi ekanligiga ishora qilinadi: ...*Boshingga qo'ngan qush, u Humoy emish.*

Abdulla Oripov ijodida *Promotey, Avatar, Sai Bobo, Demon* singari mifologik obrazlar, *Olimp tog'i, Shambala afsonasi va Humoy qushi* va ular bilan bog'liq mifologik allyuziyalardan foydalangan. Muallif qadimgi yunon, sharq va turkiy mifologiyadagi timsollarni zamonaviy ruhiy-ma'naviy muammolar bilan bog'laydi. Shoirning mifologik allyuziyalari o'z o'rnida insoniyatning ma'naviy yuksalishi, ezgulikka intilishi va o'zligini anglash yo'lidagi azaliy kurashni aks ettiradi. Bu esa uning she'rlarida allyuziyaviy qatlamga chuqur ma'no va badiiy-falsafiy kuch bag'ishlaydi.

Xulosa qilib aytganda, mifologik allyuziyalar madaniy va konseptual ma'lumotlarni anglashda muhim vosita hisoblanadi. Ular retsipientga badiiy matnning chuqur semantik qatlamini ochishga, shuningdek, muallifning o'ziga xos dunyoqarashi va fikr tizimini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Oripov. Saylanma. – T.: Tafakkur qanoti, 2018. – 128 b.
2. Avlakulov Y. O'zbek tili onomastik birliklarining lingvistik tadqiqi: Filol. fan. nomz. .diss. – Toshkent, 2012. – B.36.
3. Galperin I.R. English Stylistics. 3rd edition, Moscow: Visshaya shkola, 1981. -B. 58.
4. Ubaydullayeva.O. Mifopoetonimlarning lingvopoetik vosita sifatidagi vazifalari. – Qarshi, 2023. – №1. – B. 36-37.
5. Xujamkulova Maxbuba Bobonazarovna. Question Classification of Speech Act in Speech//Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 24 May 2022. ISSN 2694-9970.
8. Kurbanova M.M., Xujamkulova M.B. COMMUNICATIVE-
6. Karimova, M. (2023). The history of the development of allusion and its importance in literature. *Golden Brain*, 1(10), 275-279.
7. qizi Karimova, M. A. (2023). MUHAMMAD YUSUF SHE'RLARIDA NAVOIY ANTROPINIMINING TARIXIY ALLUZIYA SIFATIDA QO'LLANILISHI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(16 SPECIAL), 287-289.
8. Homidova M. Badiiy matn persepsiyasida intertekstuallik. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – T., 2021. – B.100.
9. M.Kurbanova, Navoiyda so'z qo'llash mahorati. Alisher Navoiy ijodiy merosining bashariyat ma'naviy-ma'rifiy ..., 2021M.
10. <https://uz.m.wikipedia>.